

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.10.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QOZOG‘ISTON RESPUBLIKASI J.TASHENEV NOMLI UNIVERSITET

MUSAYEVA AZADAXON MUBARAKOVNA

**TURG‘UN BIRIKMALARNING LEKSIK-SEMANTIK IFODA
IMKONIYATLARI
(Qozog‘istondagi o‘zbek shoirlari she‘riyati misolida)**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2026

UO‘K: 811.512.133'373.74+821.512.133.09(574)

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Contents of Dissertation abstract of Doctor of philosophy (PhD) on
philological sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

Musayeva Azadaxon Mubarakovna

Turg‘un birikmalarning leksik-semantik ifoda imkoniyatlari (Qozog‘istondagi o‘zbek shoirlari she‘riyati misolida)3

Musayeva Azadaxon Mubarakovna

Lexical-semantic expressive possibilities of stable compounds (on the example of the poetry of Uzbek poets in Kazakhstan)27

Мусаева Азадахон Мубараковна

Лексико-семантические выразительные возможности устойчивых сочинений (на примере поэзии узбекских поэтов Казахстана)51

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works55

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.10.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QOZOG‘ISTON RESPUBLIKASI J.TASHENEV NOMLI UNIVERSITET

MUSAYEVA AZADAXON MUBARAKOVNA

**TURG‘UN BIRIKMALARNING LEKSIK-SEMANTIK IFODA
IMKONIYATLARI
(Qozog‘istondagi o‘zbek shoirlari she‘riyati misolida)**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida Qozog'iston Respublikasi raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qozog'iston Respublikasi J.Tashenev nomli universitetda bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume) Farg'ona davlat universiteti veb-sahifasi (www.fdu.uz) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xamrayeva Xulkar Xamidullayevna
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Muminov Sidikjon Mirsobirovich
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Saidov Yoqub Siddiqovich
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc 03/25.27.12.Fil.10.05 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "18" "04" kuni soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, B.Marg'inoniy ko'chasi, 105-uy. Tel.: (99873)242-57-82; e-mail: info@fdu.uz).


Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (437 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100151, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (+99873) 244-44-94).


Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "5" "aprel" da tarqatildi.

(2026- yil "5" "aprel" dagi 21 -raqamli reyestr bayonnomasi)




G.Z. Rozikova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filol.f.d., professor


R.M. Umurzakov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.b.f.d., dotsent


M.Y. Mamajonov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida badiiy matn muayyan tilning rivojlanishi va boyishida yetakchi manbalardan biri sifatida e'tirof etilib, lingvistik tadqiqotlar uchun obyekt vazifasini o'tab kelmoqda. Badiiy matnning shakllanishida va asarning emotsional-ekspressiv ta'sirchanligini oshirishda ijodkor – til – badiiyat uyg'unligi asosiy omil hisoblanadi. Shuningdek, hayot in'ikosi sifatida milliy ong taraqqiyoti, milliy madaniyat rivojida badiiy adabiyotning o'rni beqiyosdir. Shoir va yozuvchilarning intellektual salohiyati va badiiy tafakkuri mahsuli bo'lgan asarlar adabiy til rivoji uchun eng boy manba bo'lib xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, badiiy nutq, xususan, she'riyat tilining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Dunyo tilshunosligida lingvopoetik tahlil nazariyasi o'rganish obyekti bo'lgan badiiy matnning murakkabligi va ko'p qirraliligini tan olishga asoslanadi. Zero, lingvopoetik tadqiqot usuli badiiy asarning til vositalari (stilistik, grammatik, leksik, fonetik) orqali ifodalangan o'ziga xoslik darajasini aniqlashga qaratiladi. Odatda, leksik sathga doir lingvopoetik xususiyatlar she'riy asarlarning g'oyaviy-tematik mazmunini shakllantirish va ifodalash uchun eng muhim jihat hisoblanadi. She'riy asarni undagi til birliklarining to'plami, tanlanishi va tuzilishining o'ziga xosligi, shuningdek, poetika nuqtayi nazaridan tahlil qilishda turg'un birikmalarning leksik-semantik ifoda imkoniyatlarini lingvopoetik jihatdan tadqiq qilish ham samarali usul sanaladi. Chunki turg'un birikmalarning badiiy asarda qo'llanishi asarning estetik va hissiy ta'sir kuchini oshirishga xizmat qiladi. Lingvopoetik tahlil aynan turg'un birikmalarning asar kontekstidagi semantik va stilistik xususiyatlarini, ularning obraz yaratishdagi va muallif niyatini ifodalashdagi rolini aniqlashga yordam beradi.

O'zbek tilshunosligidagi dunyo tilshunosligi bilan erkin fikr almashuv jarayoni, fanda yangicha qarashlarning vujudga kelishi lingvopoetik tadqiqotlar uchun ham imkoniyatlar eshigini keng ochib berdi. Bugungi kunda o'zbek badiiy diskursida til birliklarining jozibador va ta'sirchan usullarda voqelashuvi, ijodkorning tasvir yo'sini va so'z qo'llash mahorati, o'ziga xos uslubining lingvopoetik xususiyatlarini zamonaviy nazariyalar asosida tadqiq qilish muhim yo'nalishlardan biriga aylandi. Xususan, keyingi yillarda Markaziy Osiyo davlatlari bilan qayta tiklangan va keng ko'lamda rivojlanayotgan o'zaro qo'shnichilik aloqalari tufayli qardosh respublikalarda, xususan, Qozog'istonda yashab ijod qilayotgan o'zbek shoir va yozuvchilari asarlarini o'rganish, ularni adabiyotshunoslik va tilshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq qilish ehtiyoji kuchaydi. O'zbekiston Respublikasi hamda Qozog'iston Respublikasi o'rtasida "Abadiy do'stlik to'g'risida"gi Shartnoma imzolangani bejiz emas. Zero, "Umumiy tariximiz, madaniy va ma'naviy qadriyatlarimiz, an'ana va urf-odatlarimiz bizni birlashtirib turadi. Qozog'iston O'zbekiston uchun eng yaqin, ishonchli va davr sinovidan o'tgan hamkordir. Bugungi murakkab zamonda o'zaro munosabatlarimiz

davlatlararo hamkorlikning namunasi bo‘la oladi, deb hech mubolag‘asiz aytishimiz mumkin”¹.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-sonli “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-sonli “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-sonli “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari; 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-sonli “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonuni qabul qilinganligining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarori; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabrda 984-sonli “Davlat tilini rivojlantirish departamenti to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori, shuningdek, Qozog‘iston Respublikasi hukumatining 2017-yil 29-noyabrda 790-sonli qarori bilan tasdiqlangan Qozog‘iston Respublikasida Davlat rejalashtirish tizimining 85-bandiga muvofiq, Qozog‘iston Respublikasi hukumatining 2021-yil 12-oktabrdagi 724-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Milliy ma’naviy yuksalish” milliy dasturi, Qozog‘iston Respublikasining 2020-2025-yillarda ta’lim va fanni rivojlantirish Davlat dasturini tasdiqlash to‘g‘risida Qozog‘iston Respublikasi hukumatining 2019-yil 27-dekabrda 988-sonli qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Qozog‘istonda yashab ijod qilgan va hozirda ijod qilayotgan shoir va adiblarning hayoti va faoliyati juda kam o‘rganilgan. Xususan, M.Tojiboyevaning ma’lumot berishicha, Yusuf Saryomiy hayoti va ijodi haqidagi dastlabki ma’lumotlar Murodxo‘ja Solihxo‘ja o‘g‘lining “Tarixi jadidayi Toshkand” asariga Muhammad Solih Qoraxo‘ja o‘g‘li tomonidan yozilgan izohli ilovasida, Po‘latjon Qayumiyning tazkirasida, Mo‘minjon Toshqinning “Toshkent shoirlari...” kitobida uchraydi². Keyinchalik S.Zufarov³, E.Shodiyev⁴, B.Valiyev⁵, B.Kosimov⁶ kabi olimlar tomonidan maqolalar chop

¹ <https://president.uz/uz/lists/view/5782> (Murojaat sanasi: 18.01.2024).

² Тожибоева М.А. Юсуф Сарёмий ҳаёти ва ижоди: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1999.

³ Zufarov С. Шоир ва тарихчи // Адабий мерос, 1982. – № 2(22). – Б.89-91.

⁴ Шодиев Э. Юсуф Сарёмий зуллисонайн шоир // Адабий мерос, 1982. – № 4. – Б.75-77.

⁵ Валиев Б. Юсуф Сарёмий изидан // Тошкент оқшоми, 1988. – № 85.

⁶ Қосимов Б. Муҳаббат аҳлининг гулшани // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1990.5.10.

etilgan bo'lsa, M.Tojiboyeva⁷ Yusuf Saryomiy ijodini monografik tarzda tadqiq etgan. Bu izlanishlarning barchasi adabiyotshunoslik aspektida amalga oshirilgan.

Tadqiqotchi Shinaray Burkhitbayevaning "Təuyelsiz Qazaqstandag'i tyrki xaliqtari poeziyasi: tarixi tanim jəne ʔlttiq biregeylik (axiska tyrikteri, əzbek, ʔyg'ir, tatar aqindariniñ shig'armalari boyinsha)" ("Mustaqil Qozog'istondagi turkiy xalqlar she'riyati: tarixiy bilim va milliy o'zlik (axtik turklari, o'zbek, uyg'ur, tatar shoirlari ijodi asosida)") mavzusidagi dissertatsiyasida⁸ qayd etilishicha, Mustaqil Qozog'istonda o'zbek adabiyoti tarixi uzoq yillarga borib taqaladi. Mashhur o'zbek shoirlari Yusuf Saryomiy va Abdulhamid Luzumiylar Janubiy Qozog'istonda tug'ilib, shu yurtda yashab, o'zbek tilida ijod qilganlar. Qozog'iston mustaqillikka erishgach, mamlakatda o'zbek adiblari bilan qozoq adabiyoti namoyandalari o'rtasidagi an'anaviy ijodiy aloqalar mustahkamlanganligi ta'kidlanadi. Mazkur tadqiqotda Qozog'istondagi o'zbek shoirlarining yetakchi vakillari sifatida E.Ro'zimatov, S.Kamol qizi, B.Sobit, A.Pratov, Z.Mo'minjonov, D.Sayfullayev, E.Sultonova, I.Muhamedjonova va boshqalar ijodi tadqiqot obyektini sifatida tahlilga tortilgan.

O'zbek tilshunosligida turg'un birikmalarni o'rganish ancha ilgari boshlangan bo'lib, ushbu sohada bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. O'zbek tilidagi turg'un birikmalarning tabiati, tarkibi, semantik xususiyatlari, stilistik vazifalari va boshqa jihatlari bir qator olimlar tomonidan o'rganilgan. A.Hojiyev, M.Mirtojiyev, A.Mamatov, M.Umarxo'jayev, S.Shodiyev, A.Turobovlarning ishlarida turg'un birikmalarning tarkibiy turlari masalasiga to'xtalib o'tilgan⁹. Turg'un birikmadar ichida, asosan, frazeologizmlar keng o'rganilgan. O'zbek tili frazeologizmlarini o'rganish va tizimlashtirishda S.Mutallibov, B.O'rinboyev, S.N.Muratov, X.Abdurahmonov, Y.Pinxasov, Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedov, Sh.Rahmatullayev, B.Yo'ldoshev, A.Mamatov, M.Umarxo'jayev va boshqalar salmoqli hissa qo'shganlar¹⁰. H.Berdiyorov, R.Rasulov, M.Sadriddinova,

⁷ Тожибоева М.А. Юсуф Сарёмий ҳаёти ва ижоди: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1999.

⁸ Буркитбаева Ш.Д. Тəуелсіз Қазақстандағы түркі халықтары поэзиясы: тарихи таным және ұлттық бірегейлік (ахысқа түріктері, өзбек, ұйғыр, татар ақындарының шығармалары бойынша). Философия докторы (PhD) дәрежесін алу үшін дайындалған диссертация. – Алматы, 2021.

⁹ Маматов А. Фраzeологик бирликлар ва турғун бирикмалар деривацияси тадқиқи // Journal of Foreign Languages and Linguistics, 2021. Том 4. № 9; Шодиев С.Э. Турғун сўз бирикмалари, терминлар, таркибли терминлар борасида айрим мулоҳазалар // Хорижий филология, 2016. – № 2. – Б.71-75; Шодиев С.Э. Турғун сўз бирикмаларининг синтактик деривацияси: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD)... дисс. автореф. – Самарқанд, 2020.

¹⁰ Пинхасов Я. Ўзбек тили фразеологияси ҳақида. – Тошкент: Фан, 1957; Саломов Ф. Тил ва таржима. – Тошкент: Фан, 1966; Yo'ldoshev B. Mustaqillik yillarida o'zbek frazeologiyasi: erishilgan yutuqlar va navbatdagi vazifalar // Xorijiy filologiya, 2017. – №1. – B.5-13.

I.F.Bayonxonovalar paremiologik birliklar¹¹, N.Mahmudov, D.Xudayberganova, F.Usmonovlar esa turg'un o'xshatishlar¹² borasida tadqiqotlar olib borganlar.

Hozirgi davrda o'zbek tilshunosligida turg'un birikmalarni o'rganish davom etmoqda. Xususan, turg'un birikmalarning kognitiv xususiyatlari, pragmatik vazifalari, diskursda qo'llanilishi kabi masalalar tadqiq etilmoqda. O'zbek tilshunosligida iboralar, maqol, matal, turg'un o'xshatishlarning har biri alohida-alohida tarzda keng ko'lamda tadqiq qilingan bo'lsa-da, ularni "turg'un birikmalar" tushunchasi ostida tizimlashtirish, o'xshash va farqli jihatlarini tahlil qilish masalasi endigina kun tartibiga qo'yila boshladi. Turg'un birikmalarning lingvopoetik nuqtayi nazardan leksik-semantik imkoniyatlari muammosi maxsus monografik planda tadqiq obyekti bo'lgan emas. Boshqa tomondan esa turg'un birikmalarning leksik-semantik imkoniyatlarini, aynan, Qozog'istondagi o'zbek shoirlari ijodi misolida tadqiq qilish muhim ijtimoiy ahamiyatga ega.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi. Tadqiqot Qozog'iston Respublikasi J.Tashenev nomli universitet "Filologiya" kafedrasining "XXI asrda turkiy xalqlar tilshunosligining asosiy yo'nalishlari, xususiyatlari va muammolari" mavzusidagi istiqbolli rejasi asosida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Turg'un birikmalar talqinining mezon va tamoyillarini aniqlash, shuningdek, Qozog'istondagi o'zbek shoirlari she'riyati misolida o'zbek-qozoq tili muhitining o'zbek ijodkorlari poetik nutqiga ta'siri, iboralar lingvopoetikasida o'zbek-qozoq lingvomadaniy kodlarining ifodalanishi, turg'un birikmalarning leksik-semantik ifoda imkoniyatlarini lingvopoetik jihatdan tadqiq qilish dissertatsiyaning asosiy maqsadini tashkil etadi.

Tadqiqot vazifalari. Tadqiqot maqsadiga erishish uchun quyidagi vazifalar amalga oshirildi:

o'zbek tilshunosligida turg'un birikmalarning tildagi o'rni va tadqiqi, turg'un birikmalar talqinining mezon va tamoyillarini lingvopoetik tadqiqotlar doirasida umumlashtirish;

Qozog'istondagi o'zbek shoirlari she'riyatining lingvistik xususiyatlarini o'zbek tilshunosligida o'rganilish darajasini belgilash va uning bugungi kundagi dolzarb ahamiyatini ko'rsatib berish;

Qozog'istondagi o'zbek ijodkorlari poetik nutqiga o'zbek-qozoq tili muhitining ta'siri, iboralar lingvopoetikasida o'zbek-qozoq lingvomadaniy kodlarining ifodalanishi masalasini yoritish;

¹¹ Шорахмедов Ш. Мақолларнинг пайдо бўлишига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 1971. – №4. – Б.31-34; Абдурахмонов Х. Синтаксические особенности узбекских народных пословиц: Автореф. дисс. ...канд. филол.наук. – Ташкент: Фан, 1964; Садриддинова М. Лексика узбекских пословиц и поговорок: Автореф. дисс. ...канд. филол.наук. – Ташкент, 1985. – 20 с. Мирзаев Т. ва б. Ўзбек халқ мақоллари. – Тошкент: Шарк, 2003. Абдурахмонов Х. Содда гап синтаксиси хусусиятларининг ўрганилишига доир (мақол, мatal ва топишмоқлар материали асосида). – Тошкент: Ўқитувчи, 1976; Жўраева Б.М. Мақолларнинг лисоний мавкеи ва маъновий-услубий қўлланилиши: Филол.фан.номз. ...дисс... – Бухоро, 2002; Турдалиева Д.С. Ўзбек халқ мақолларининг лингвопоетик хусусиятлари: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD)... дисс. автореф. – Қарши, 2019; Мирзаалиев И.М. Қадимги туркий мақоллар семантикаси ва стилистикаси ("Девону луғати-т-турк" материали мисолида): Филол. фан. б. фалс. док. (PhD)... дисс. автореф. – Тошкент, 2020.

¹² Махмудов Н. Ўхшатишлар – образли тафаккур маҳсули // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2011. – №3. – Б.19-24; Махмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013. – 320 б.

shoirlarning soʻz tanlash, turgʻun birikmalarni qoʻllashdagi oʻziga xosliklarining lingvistik va badiiy-estetik asoslarini ochib berish;

maqol, matal va turgʻun oʻxshatishlarning sheʻriy nutqdagi poetik xoslanishi, badiiy tasvir va ifoda vositalarida turgʻun birikma belgilarining aktuallashuvini tahlil qilish;

Qozogʻistondagi oʻzbek ijodkorlari sheʻriy asarlari tili badiiyatini taʼminlovchi badiiy tasvir va ifoda vositalarining lingvistik xususiyatlarini lingvopoetik va sotsiolingvistik nuqtayi nazardan oʻrganish.

Tadqiqot obyekti sifatida Qozogʻistondagi oʻzbek ijodkorlari Abdurahim Pratov, Ernazar Roʻzimatov, Soatoy Kamol qizi, Erkinoy Sultonova, Bahodir Sobit, Zokirjon Moʻminjonov, Dolimjon Sayfullayev, Robiyaxon Doʻstonova, Iroda Muhammadjonova sheʻriy asarlari tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini Qozogʻistondagi oʻzbek ijodkorlari sheʻriyati misolida turgʻun birikmalar leksik-semantik ifoda imkoniyatlarining lingvopoetik xususiyatlari tashkil qiladi.

Tadqiqot metodlari. Mazkur ishda semantik-stilistik, dialektik, komponent tahlil, tavsiflash, qiyoslash, lingvopoetik, lingvomadaniy va sotsiolingvistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

turgʻun birikmalarning til tizimidagi oʻrni va funksional xususiyatlarini oʻrganish hamda umumlashtirish asosida ular frazeologizm, maqol, matal, hikmatli soʻzlar, tarkibli terminlar, birikmali onomastik nomlar, parafrazalar, turgʻun oʻxshatishlar kabi guruhlariga ajratilishi asoslangan;

turgʻun birikmalarning badiiy, publitsistik matnlarda va jonli nutqda qoʻllanish usullari, tarixiy va etimologik asoslari, ushbu birliklar orqali tilda olamning leksik, frazeologik va paremiologik manzarasi aks etishi, turgʻun oʻxshatishlar ham murakkab tabiatli til birliklari sifatida tahlilga tortilishi mumkinligi aniqlangan;

Qozogʻistondagi oʻzbek shoirlari ijodida qoʻllangan *Qozogʻiston, Turkiston, Qorabuloq, Turbat, Sayram, Sigʻnoq* toponimlari; *Koʻlkat koʻl, Bodom daryo, Qashqasuv* gidronimlari; *Ato(lar), Ismoil ota, Yassaviy, Abay, Jibek, Jambul, Baurjon* antroponimlari misolida ikki xalq hayotida milliy-madaniy tushunchalarning uygʻunlashuvi eli, maʼnaviy ildizlari bir boʻlgan oʻzbek-qozoq milliy-madaniy itimoiy makon kodlarining til tashuvchilari ongidagi oʻziga xos belgilari ekanligi dalillangan;

ayrim badiiy tasvir va ifoda vositalarining shakllanishida u yoki bu turgʻun birikmaning mantiqiy asosi yotishi, lirik qahramonning magʻrur tolga oʻxshatilishida inson – daraxt turgʻun oʻxshatishi, *siniq koʻngil* epiteti negizida esa koʻnglini sindirmoq iborasi aktuallashishi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

jahon hamda oʻzbek tilshunosligida mavjud nazariy qarashlar asosida turgʻun birikmalarning leksik-semantik ifoda imkoniyatlari lingvopoetik aspektda tadqiq etilgan, ibora, maqol, matal va turgʻun oʻxshatishlarning Qozogʻistondagi oʻzbek shoirlari ijodidagi oʻziga xos xususiyatlari dalillangan;

dissertatsiyada to'plangan materiallar va taqdim etilgan xulosalar o'zbek tili lingvopoetikasi bo'yicha darslik va qo'llanmalar yaratishda manba sifatida xizmat qilishi ko'rsatilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilganligi hamda ularda keltirilgan ilmiy ma'lumotlar ishonchli manbalarga tayanilganligi, turg'un birikmalarning leksik-semantik ifoda imkoniyatlarini lingvopoetik jihatdan tadqiq qilish bo'yicha amalga oshirilgan tahlillar tavsifiy, semantik-stilistik, qiyoslash, lingvopoetik, lingvomadaniy usullar vositasida asoslanganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi va vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati mazkur tadqiqotda erishilgan ilmiy natijalardan leksikologiya, frazeologiya, paremiologiya, badiiy matn tahlili, amaliy tilshunoslikka doir izlanishlarda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi. Tadqiq etilayotgan masalaning tildagi o'rni va ahamiyatining yanada chuqurroq o'rganilishi ham nazariy, ham amaliy jihatdan e'tiborga loyiq bo'lib, kelgusida leksikologiya, stilistika, lingvopoetikaga doir ilmiy tadqiqotlar uchun ham bevosita material bo'lib xizmat qiladi.

Dissertatsiyada ilgari surilgan g'oyalar, nazariy qarash va amaliy tavsiyalar darsliklar monografiyalar, o'quv qo'llanmalar yaratishda hamda ma'ruza matnlari tayyorlashda manba bo'la oladi. Ishda to'plangan materiallardan O'zbekiston va Qozog'iston oliy o'quv yurtlarining filologiya yo'nalishlarida "Til amaliyoti" "Badiiy matn tahlili" "Badiiy matnning filologik tahlili", "Tahliliy o'qish", shuningdek, magistratura ixtisosliklarida "Stilistika" "Lingvopoetika" "Leksikologiya" hamda "Badiiy matn tahlili" fanlaridan ma'ruza matnlari tuzishda, shu yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlari uchun fan dasturlari, o'quv dasturlari tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qozog'istondagi o'zbek shoirlari asarlarining badiiyatini va obrazlilik qiymatini ta'minlovchi turg'un birikmalarning tadqiqi yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

she'riy asarlarda ayrim badiiy tasvir va ifoda vositalarining shakllanishida u yoki bu turg'un birikma mantiqiy asos bo'lishiga oid xulosa va tavsiyalardan 2022-2023-yillarda O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida amalga oshirilgan "O'zbek milliy raqs san'atini targ'ib etishga bag'ishlangan veb-sayt va multimedia mahsulotlari to'plamini (elektron lug'atlar) yaratish" mavzusidagi FZ – 2019081663 raqamli fundamental loyihani bajarishda foydalanilgan (O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining 2024-yil dekabrda 1/ - 04- 27-sonli ma'lumotnomasi). Natijada loyihaning ilmiy-nazariy manbalari boyitilib, lug'atlarning mukammallashuviga erishilgan;

milliy-ma'naviy ildizlari bir bo'lgan o'zbek-qozoq milliy-madaniy itimoiy makon kodlarining til tashuvchilari ongidagi o'ziga xos belgilari hamda Qozog'istondagi o'zbek shoirlari ijodida qo'llangan *Qozog'iston, Turkiston, Qorabuloq, Turbat, Sayram, Sig'noq* toponimlari; *Ko'lkat ko'l, Bodom daryo, Qashqasuv* gidronimlari; *Ato(lar), Ismoil ota, Yassaviy, Abay, Jibek, Jambul, Baurjon* antroponimlari misolida ikki xalq hayotida milliy-madaniy tushunchalarning uyg'unlashuviga oid ilmiy xulosa va tavsiyalardan

Qozog‘istondagi ta‘lim o‘zbek tilida olib boriladigan umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining “O‘zbek tili” dastur va darsliklarini tuzishda, “O‘zbek tili (5-8-sinflar uchun)” nomli metodik qo‘llanmalarni yaratishda foydalanilgan (Qozog‘iston Respublikasi o‘zbek etno-madaniy birlashmalari “Do‘stlik” hamjamiyatining 2024-yil 12-dekabrda 10-sonli dalolatnomasi). Natijada Qozog‘istondagi ta‘lim o‘zbek tilida olib boriladigan umumta‘lim maktablari ona tili darslarida o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini yuzaga chiqarish va rivojlantirish, ta‘lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

badiiy matnda turg‘un birikmalarning til tizimidagi o‘rni va funksional xususiyatlarini o‘rganish hamda umumlashtirish asosida ularning frazeologizm, maqol, matal, hikmatli so‘zlar, tarkibli terminlar, birikmali onomastik nomlar, parafrazalar, turg‘un o‘xshatishlar kabi guruhlarga ajratilishi haqidagi ilmiy xulosalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanalining “Bedorlik”, “Adabiy jarayon”, “Ta‘lim va taraqqiyot”, “Millat va ma‘naviyat” eshittirishlarida foydalanilgan (O‘zMTRKning 2024-yil 28-noyabrda 04-27-2057-sonli dalolatnomasi). Natijada ushbu eshittirishlar amaliy jihatdan boyitilgan va ilmiy dalillar bilan ta‘minlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 10 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 7 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 21 ta ilmiy ish, 1 ta monografiya chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika va 9 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Ushbu tadqiqot kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 126 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ko‘rsatib o‘tilgan, ishning maqsad va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Turg‘un birikmalar lingvopoetik tadqiq obyekti sifatida**” deb nomlangan bo‘lib, uch fasldan iborat. Birinchi fasl “*Turg‘un birikmalarning tildagi ahamiyati va o‘rganilishi*” deb nomlangan.

Keyingi o‘n yilliklarda, turg‘un birikmalar xususidagi bilim va tushunchalar o‘sish va rivojlanishda davom etib, mazmun-mohiyati kengayib bormoqda. Jumladan, turg‘un birikmalar tushunchasining tadqiq obyekti, tavsifi va tasnifi, periferik doirasi borasida turlicha fikrlar o‘rtaga tashlanmoqda.

Turg'un birikma, barqaror birikma atamaları, tor ma'noda, faqat ibora (frazeologizm)larni ifodalasa, keyingi paytlarda, tilda bir butun holda mavjud bo'lib, nutqqa yaxlitligicha kiritiladigan birliklarning barchasi – *frazeologik ibora, maqol, matal, hikmatli so'z, tarkibli birikmalar, turg'un o'xshatishlarga* nisbatan keng ma'noda qo'llanish tendensiyasi shakllanmoqda. Lekin bu borada turlicha qarashlar, turlicha yondashuvlar mavjudligi turg'un birikmalar tasnifi masalasini biroz murakkablashtirmoqda.

Dissertatsiyada A.Hojiyev, A.Mamatov, S.Isayev, A.Turobov kabi olimlarning turg'un birikmalarning tarkibi borasidagi nazariy qarashlari o'rganilgan va ularga munosabat bildirilgan. Turg'un birikmalar xususidagi nazariy fikrlarni umumlashtirish asosida hamda o'z mulohazalarimizga tayanib, ularni quyidagicha tasnifladik:

1. **Frazeologizmlar:** *kapalagi uchib ketdi, yuragini hovuchladi.*
2. **Maqol va matal, hikmatli so'zlar:** *ko'pni yomonlagan ko'muvsiz qolar.*
3. **Tarkibli atamalar (terminlar):** *so'z yasovchi affikslar, gapning ikkinchi darajali bo'laklari.*
4. **Birikmali onomastik nomlar:** *Birlashgan Millatlar Tashkiloti.*
5. **Parafrazalar:** *dala malikasi, oq oltin, qora oltin.*
6. **Turg'un o'xshatishlar:** *otasi tirilib kelganday, piyoz po'stiday yupqa.*

Bunday til birliklarining aksariyati, o'z o'rnida, ramz, metafora, ko'chimlar asosida milliy madaniyatga xos urf-odat, rasm-rusum, milliy realiyalar, mifologik tushunchalar asosida shakllangan lingvomadaniy birliklar hisoblanib, nafaqat tilning leksik va frazeologik qatlamini boyitishga, balki badiiy asarlar tiliga xoslangan frazeologik hamda paremiologik birliklar sifatida o'tkir va teran badiiy tasvir vositasi bo'la olishi bilan ahamiyatlidir.

B.Yo'ldoshevning "Mustaqillik yillarida o'zbek frazeologiyasi: erishilgan yutuqlar va navbatdagi vazifalar" nomli tahliliy maqolasida frazeologiyaning o'rganilishi masalalari bir qadar qamrab olingan. Maqolada qayd etilishicha, M.Mirtojiyev iboralar, turg'un birikma holdagi atamalar (*milodiy yil, agrar masala, katta maslahatchi, ilmiy xodim kabi*), parafrazalar (*mo'yqalam sohibi, ilm zahmatkashlari, zangori kema kapitani kabi*) va frazemalar (*ko'ngli xira tortdi, kavushini to'g'rilab qo'ydi kabi*)dan iborat deb hisoblaydi. H.Jamolxonov esa frazemalarni ko'chma ma'noli turg'un konstruksiyalar sifatida tavsiflaydi, frazemaning ifoda plani deganda, uning tovush tomoni, leksik tarkibi, birikmaga yoki gapga teng konstruksiyasini, mazmun planida esa uning nimanidir nomlashi, ifodalashi, anglatishini nazarda tutadi¹³.

"Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligida frazeologizmlar va so'z turkumlari o'rtasidagi munosabat masalasiga e'tibor qaratib o'tilgan. Frazeologizm, asosan, belgi va harakat ifodalashi nuqtayi nazaridan ularning grammatik jihatdan belgi yoki harakat bildiruvchi so'z turkumiga mansubligi ta'kidlangan va fe'l, sifat, ravish hamda so'z-gaplarga mansub frazeologizm turlari ko'rsatilgan¹⁴.

¹³ Жамолхонов Х. Хозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2013. – Б.334-335.

¹⁴ Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Боқиева Г., Қурбонова М., Юнусова З., Абузалова М. Хозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 2006. – Б.122.

Ma'lumki, paremalarni tilshunoslik obyekti sifatida o'rganish tarixi Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asariga borib taqaladi. Akademik G'.Abdurahmonovning ma'lumot berishicha, M.Koshg'ariy XI asrdayoq turkiy xalqlarning hikmatli iboralaridan juda katta qismini o'zining "Devon"iga kiritib, ularning qanday vaziyatda, qaysi mazmunda qo'llanishini arab tilida izohlagan edi. "Devonu lug'otit turk"da xalq og'zaki ijodiga oid 300 dan ortiq she'riy parchalar, 291 ta maqol va matallar keltiriladi¹⁵.

O'zbek tilshunosligida paremalarni tadqiq qilish borasida Sh.Rahmatullayev, Y.Pinxasov, Sh.Shorahmedov, X.Abdurahmonov, H.Berdiyorov va R.Rasulov, G'.Salomov, Q.Samadov, M.Sadriddinova, B.M.Jo'rayeva, D.S.Turdaliyeva, I.M.Mirzaaliyev va boshqalarning ishlarini e'tirof etish mumkin¹⁶. O'zbek xalq maqollarining badiiy adabiyotdagi va folklordagi o'rni bo'yicha qator tadqiqot ishlari amalga oshirilgan bo'lib, maqollarning lisoniy mavqeyi va ma'noviy-uslubiy qo'llanishi, ularning sintaktik hamda lingvopoetik xususiyatlari tadqiq qilingan¹⁷.

P.Bakirovning doktorlik dissertatsiyasida maqolning paremiologik birlik, alohida tip sifatidagi maqomi asoslab berilganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ishda maqolning boshqa paremalar orasidagi o'rni aniqlangan, maqollarni o'rganishga qo'yiladigan nazariy talablar, shuningdek, turli tizimlardagi tillarning paremiologik birliklarini har tomonlama tahlil qilish taklif etilgan, rus, o'zbek va qozoq tillaridagi nominal markazlashgan maqollarning semantikasi bayon etilgan¹⁸. M.A.Xamidov paremiologik birliklarni janubiy Surxondaryo o'zbek shevalari kesimida tadqiq qilib, ibora, maqol hamda matalning funksional-semantik xususiyatlarini o'xshash va farqli jihatlari nuqtayi nazaridan tahlil qilgan¹⁹.

Yuqoridagi tafsilotlardan ko'rishimiz mumkinki, turg'un birikmalar ham murakkab tabiatli til birliklari sifatida turli rakurslarda tahlilga tortilishi mumkin. Zero, o'zbek tilshunoslari ham bu masalaga jiddiy e'tibor qarata boshlaganlari bejiz emas.

Bobning ikkinchi faslida *"Qozog'istonda o'zbek tili lingvomadaniy ijodiy muhitining ko'lamdorligi"* yoritilgan. Qozog'istonda yashab ijod qilayotgan o'zbek shoirlarining she'r va dostonlarida vatanga muhabbat, tabarruk tuproqqa sadoqat,

¹⁵ Абдурахмонов Ф. "Девону луғотит турк" асарининг ўрганилиш тарихидан // Ўзбек тили ва адабиёти, 2009. – №6. – 49-б.

¹⁶ Раҳматуллаев Ш. Нутқимиз кўрки. – Тошкент: Фан, 1970; Пинхасов Я. Ўзбек тили фразеологияси ҳақида. – Тошкент: Фан, 1957; Саломов Ғ. Тил ва таржима. – Тошкент: Фан, 1966; Шораҳмедов Ш. Мақолларнинг пайдо бўлишига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 1971. – №4. – Б.31-34; Абдурахмонов Х. Синтаксические особенности узбекских народных пословиц: Автореф. дисс. ...канд. филол.наук. – Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1964; Садриддинова М. Лексика узбекских пословиц и поговорок: Автореф. дисс. ...канд. филол.наук. – Ташкент, 1985; Абдурахманов Х. Особенности синтаксиса узбекского устного народного творчества: Автореф. дисс. ...д-ра. филол.наук. – Ташкент, 1977. – 48 с.

¹⁷ Абдурахмонов Х. Содда гап синтаксиси хусусиятларининг ўрганилишига доир (мақол, матал ва топишмоқлар материали асосида). – Тошкент: Ўқитувчи, 1976; Жўраева Б.М. Мақолларнинг лисоний мавқеи ва маъновий-услубий қўлланилиши: Филол. фан. номз. ...дисс. – Бухоро, 2002; Турдалиева Д.С. Ўзбек халқ мақолларининг лингвопозтик хусусиятлари: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD)... дисс. автореф. – Қарши, 2019; Мирзаалиев И.М. Қадимги туркий мақоллар семантикаси ва стилистикаси ("Девону луғати-т-турк" материали мисолида): Филол. фан. б. фалс. док. (PhD)... дисс. автореф. – Тошкент, 2020.

¹⁸ Бакиров П. Номинацентрические пословицы в разносистемных языках (на материале русского, узбекского и казахского языков): Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Ташкент, 2007. – 53 с.

¹⁹ Хамидов М.А. Ўзбек тили жанубий Сурхондарё ўзбек шевалари барқарор бирикмаларининг лингвистик хусусиятлари: Филол. фан. фалс. док. (PhD)... дисс. автореф. – Жиззах, 2022.

milliy ruh, milliy o'zlik tuyg'usining, qadriyat va an'analarning yorqin ohanglarda badiiy ifodalanishi millatdoshlarimiz o'zlarini qadimiy Turonning ajralmas qismida yashayotgan avlod ekanliklari bilan faxrlanishlaridan darak beradi. Mazkur dissertatsiya ishida Qozog'iston Respublikasida yashab, ijod qilayotgan Dolimjon Sayfullayev, Abdurahim Pratorov, Erkinoy Sultonova, Iroda Muxammedjonova, Robiya Qamchibek qizi, Zokirjon Mo'minjonov, Hurbuvi Odilova kabi o'zbek shoirlari she'rlarining lingvopoetik xususiyatlari tahlil qilingan.

Qozog'istondagi o'zbek adabiy muhiti so'nggi yillarda ancha faollashib, hozirda Chimkent viloyatida "Sayram", "Chashma", "Turkiston", "Chimkent", "Isfijob", "Ko'k qiyo ilhomlari", "Qoramurt" ijodiy uyushmalari faoliyat yuritmoqda. Bundan tashqari, ijodkorlarning kitoblari muntazam chop etilmoqda. Turli xalqaro, respublika, viloyat miqyosida anjumanlar o'tkazilmoqda. Mustahkam adabiy do'stlik rishtalari bog'lanmoqda²⁰.

Keng qamrovli muloqotlar jarayonida bir madaniyat ikkinchi bir madaniyatga ham o'z ta'sirini o'tkazadi, ham o'zi boyiydi. San'atning barcha turlari kabi adabiyot ham xuddi shu yo'l bilan yuksaladi. Q.Seydanovning fikricha, "O'zbek va qozoq xalqi tarixan bir-biri bilan yonma-yon yashab, doimo bir-biriga alohida mehr bilan yaqindan nazar tashlab, bir-birini qo'llab-quvvatlagan. Shu sababdan qalam sohiblarining ijodida bu jihatlar yaqqol namoyon bo'lgan"²¹.

Toshkent, Chimkent, Olmaota shaharlarida chop etilgan "Yoshlar ovozi", "Turon chechaklari", "Qanot qoqdi", "Chashma guldastasi", "Chashma mavjlari", "Chashma chamani", "Məngilik yelim meniң", "Təyyelsizdik tebrenisteri" to'plamlariga Qozog'istondagi o'zbek ijodkorlarining she'r, hikoya, tarjimalaridan namunalar kiritildi. 2012-yilda Qozog'iston xalqi Assambleyasi Qozog'iston o'zbeklari "Do'stlik" hamjamiyati qoshida "Ijodkor" adabiy birlashmasi tuzildi. Maqsad – adabiyot va madaniyat vositasida Qozog'iston va O'zbekiston ijodkorlari o'rtasida do'stlik rishtalarini mustahkamlashdan iborat edi. Sh.Burkitbayeva ta'kidlaganidek, "Qozog'istonda yashovchi turli millatga mansub shoir va yozuvchilar chuqur qondoshlik rishtalari bilan shu ona zaminga bog'langanlar. Xususan, o'zbek adiblarining o'zlari yashayotgan mamlakat taraqqiyoti, Vatan istiqboli uchun ulkan hissa qo'shayotganlarini alohida ta'kidlash zarur. Ularning asarlarida millatlararo totuvlik, vatanparvarlik, milliy o'zlik, ulug' ajdodlari, o'z xalqi tarixi bilan faxrlanish tuyg'ulari bilan sug'orilgan samimiy tug'yonlari o'z ifodasini topgan". Qozog'iston Respublikasida yashab, ijod qilayotgan Iroda Muxammedjonova, Dolimjon Sayfullayev, Soatoy Kamol qizi, Robiya Qamchibek qizi, Zokirjon Mo'minjonov, Hurbuvi Odilova kabi o'zbek shoirlari o'z she'r-u dostonlarida, tarjimalarida milliy xarakterlar, tarixga munosabat, jamiyat voqeliklari talqinida, qahramonlar tilini individuallashtirishda, zamondoshlarining dunyoqarashi, turmush tarzi va ruhiy kechinmalarini tasvirlashda xalq maqollari, matallari va iboralaridan o'rinli foydalanganlar. Bu usul ta'sirchanlik va ixchamlikni ta'minlash barobarida kitobxon qalbida his-hayajon uyg'otadi, fikrlashga, mushohada yuritishga undaydi.

²⁰ Хамроева Х. Ганиев С. Хой хой ўлан, жон ўлан // Янги Ўзбекистон, 2020 йил, 4 декабрь .

²¹ Сейданов Қ. Навоий ва Абай. Ўзбек – козоқ адабий алоқалари. – Тошкент: Машхур – пресс, 2018. – Б.31.

Ikkinchi bob “**Qozog‘istondagi o‘zbek shoirlari asarlarida iboralarning leksik-semantik xususiyatlari**” deb nomlangan. Bobning birinchi fasli “*O‘zbek ijodkorlari poetik nutqiga o‘zbek-qozoq tili muhitining ta’siri*”ni o‘rganishga qaratilgan.

Qozog‘istondagi o‘zbek shoirlari ijodida *Qozog‘iston, Turkiston, Qorabuloq, Turbat, Sayram, Sig‘noq* toponimlari; *Ko‘lkat ko‘l, Bodom daryo, Qashqasuv* gidronimlari; *Ato(lar), Ismoil ota, Yassaviy, Abay, Jibek, Jambul, Baurjon* antroponimlari kabi ikki xalq hayotiga oid milliy-madaniy tushunchalarning uyg‘unlashuvi ijtimoiy makonning til tashuvchilari ongidagi o‘ziga xos belgilari hisoblanadi.

D.Sayfullayevning “80-yillar qo‘shig‘i” she’rida besh misralik banddan iborat yetti bandning har biri “Zamon, zamon deyishib, qozoqlarni yedilar”, “Zamon, zamon deyishib, turkiy elni yedilar”, “Zamon, zamon deyishib, turkiy tilni yedilar”, “Zamon, zamon deyishib, Turkistonni yedilar”, “Zamon, zamon deyishib, musulmonni yedilar” misralari bilan yakunini topadi. Aynan, mana shu misralarda eli, ma’naviy ildizlari bir bo‘lgan o‘zbek-qozoq milliy-madaniy kodining belgilarini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, *turkiy el, turkiy til, musulmon, Turkiston* kabi so‘z va birikmalarning mohiyati har ikki xalq vakillari uchun ham birday aziz, bir xil darajadagi qadriyatlaridir, ular faqat o‘zbek yoki qozoq millatiga mansubligi bilan farqlanadi.

Badiiy matnning shakllanishida va asarning emotsional-ekspressiv ta’sirchanligini oshirishda ijodkor – til – badiiyat uyg‘unligi asosiy omil hisoblanadi. Zero, “Yozuvchining mahorati haqidagi gapni tildan boshlash kerak. Til hamma vaqt asarning asosiy materiali bo‘lib qoladi. Badiiy adabiyot bu til san’atidir”²². E.Ro‘zimatov asarlarida “*Oqlab Vatan osh-tuzin, qaratmay yerga yuzin*” kabi o‘zbek xalq maqollari bilan birga “*O‘zin osmon tutadi*”, “*Ming bor qarar ko‘zi to‘rt bo‘lib*”, “*Pashshadan fil yasab kuydirganlar ko‘p*”, “*Lom-lim demay tinglardi*”, “*Jo‘jabirday jon bo‘lsang*”, “*Sho‘ringga sho‘rva to‘kib*”, “*Boshida yong‘oq chaqib*”, “*Es-hushidan ayrilib*”, “*Bir boshin ikki qildi*”, “*Ko‘rgani ko‘zim yo‘q*”, “*Yuzin yerga qaratma*” kabi juda ko‘p iboralar ijodkor tomonidan ustalik bilan o‘z o‘rnida qo‘llanganki, ular badiiy matn tarkibida qahramonlar ruhiyatini, voqelikni hayotiy, haqqoniy tasvirlashga xizmat qilgan.

E.Ro‘zimatov ijodida tarixi va taqdiri, urf-odatlarini, milliy qadriyatlari mushtarak, bir daryodan suv ichgan, asrlar sinoviga birga bardosh bergan ikki birodar, ikki qondosh – o‘zbek va qozoq xalqlarining do‘stligi mavzusi muhim ahamiyat kasb etadi. Uning “*Do‘stlik qo‘shig‘i*”, “*Hilpirasin do‘stlik bayrog‘i*”, “*Abayim*”, “*Turkiston gullari*” kabi she’rlari fikrimizning yorqin dalilidir. Shoir “*Abayim*” she’rida Hazrat Navoiyni o‘ziga ustoz deb bilgan buyuk qozoq oqini Abay Qo‘nonboyevni shunday ta’riflaydi:

Abayimsan, ulug‘ shoir Abayim,
Kuy, qo‘shig‘im senga atab aytayin.
O‘zbek, qozoq bil azaldan og‘ayni,

²² Федин К. Маҳорат ҳақида. Бадий ижод ҳақида. Ёзувчиларнинг нутқ ва мақолалар тўплами. – Тошкент: Фан, 1960. – Б.133.

Bir non topsa, bo‘lib yegani tayin.

Bunday inoqlik, mehr-muruvvatdan odamlar baraka topadi, turli millat vakillari birlashadilar.

Ikkinchi bobning ikkinchi faslida “*Qozog‘istondagi o‘zbek shoirlari ijodida iboralarning leksik-semantik xususiyatlari*” tadqiq qilingan. Badiiy asar obrazli nutqning cheksiz imkoniyatlarini yuzaga chiqaruvchi eng muhim vosita hisoblanadi. Bunda, asosan, ijodkorning so‘zni ruhan his qilishi, so‘z qo‘llashdagi badiiy mahorati yetakchi vazifani bajaradi.

A.Pratov “Xayrixoh” she‘rida bir necha she‘riy san‘atlarni uyg‘unlashtirib, olam va odam, boqiylik va foniyluk munosabatlarining rangin suratini chizadi. Bunday badiiy kashfiyotlar kitobxonni befarq qoldirmaydi, uni mushohada yuritishga undaydi:

Kimdir yo‘l topolmay, tentirar hayron,
Chuvalanib ketgan tor so‘qmoq aro.
Bunday boraqolgin, bu so‘nggi dara,
Keng yo‘lni ko‘rsatar, xayrixoh inson!

N.Mahmudov qayd etganidek, “istiqlol sharofati bilan milliy o‘zlik, milliy iftixor, milliy ma‘naviyat degan tushunchalar barqarorlashdi. Milliy qadriyatlarining muqaddasligi chuqur anglanmoqda. Tilimizning har taraflama kamoli umumdavlat ishiga aylandi”²³. Olam yangilanayotgan, tafakkurlar to‘qnashayotgan bugungi kunda lingvopoetik mohiyat kasb etuvchi til birliklarini saralash, ularni til egalarining voqelikka, bizni o‘rab turgan borliqqa munosabati, nutq obyektiga haqidagi umumiy bilimlari, muloqot vaziyati, kontekst kabi nolisoniy omillar bilan bog‘liq holda tadqiq etish dolzarb masalaga aylandi.

E.Sultonovanning “Qor yupanchi” she‘rini tahlil qilamiz:

Qordan ro‘mol yopinib oldi,
Majnuntolning kokili toldi.
Qaddi egik, mahzun, parishon,
Soy tubiga termulib qoldi.

(E.Sultonova, “Qor yupanchi”)

Qordan ro‘mol yopinib olgan majnuntol o‘quvchining zavqini oshiradi. *Soy tubiga termulib kokillari tolgan majnuntol, goh ko‘nglida g‘uluv majnuntol, oppoq libosli majnuntol, xayoli to‘zg‘in majnuntol* kabi tasviriy birikmalar o‘ta tabiiyligi bilan kitobxonni rom qiladi. Tabiat sirlarini kashf etishda muallif xalqona so‘z o‘yinlariga, tasavvurning uchqurligi, xayol dunyosining kengligiga tayanadi.

Shoirlarning she‘rlariga alohida joziba, o‘zgacha shukuh, jarangdorlik baxsh etgan omillardan eng asosiysi – uning o‘ziga xos tili, o‘ziga xos tasvir usuli, xalqona ohangdorlikdir. Xususan, xalq maqollari, iboralari, matallari va hikmatli so‘zlardan o‘rinli foydalanish ijodkor she‘rlariga badiiy jihatdan sayqal beradi. Shu nuqtayi nazardan she‘riy asarlar lingvopoetikasi tadqiq usuli shoirlar mahoratini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

Odatda, turkiy xalqlar o‘z farzandlarini “*kozimning oq-u qorasi*” deya erkalaydilar, ularni ko‘zining gavhari misol ardoqlab, asrab-avaylaydilar. “Saodat

²³ Махмудов Н. Тил. – Тошкент: Ёзувчи, 1998. – Б.16

bayrami” she’rida Bahodir Sobit Qozog‘istonda yashayotgan o‘zbeklarni yurtning ko‘z qorasiga o‘xshatadi:

Shu aziz Vatanning ko‘z qorasi biz,
Dono Elboshining suygan elati.
Ozod Qozog‘iston Vatandir yolg‘iz,
Yuz o‘ttiz millat va o‘zbek millatin.

(Bahodir Sobit, “Saodat bayrami”)

Shoir yana bir she’rida *kindik qoni to‘kilgan* iborasini qo‘llaydi.

Forobiy, Atoiy farzanding,
Kindik qoni senga to‘kilgan

(Bahodir Sobit, “Ulug‘ yo‘l”)

B.Sobitning she’rlaridagi har bir so‘z, har bir ibora o‘ta o‘zbekona. Shoir “*Og‘zidan bol tomadi*” iborasini o‘zgartirib, *Lutfidan bol tomar* shaklida qo‘llaydi. *Og‘zidan bol tomadi* (kimning) shirinsuxan bo‘lmoq, shirinsuxanlik qilmoq²⁴.

Lutfidan bol tomar ma’no to‘la dur,
Tabriklarning sizga yo‘qdir poyoni.

(B.Sobit, “Muborakbod”)

Og‘iz so‘ziga lutf so‘zining metonimiya orqali ma’nodosh qilib keltirilishi ma’noni kuchaytirgan. Ibora tarkibidagi so‘zlarni o‘zgartirishda sinonimiya, antiteza kabi vositalardan mahorat bilan foydalanishi Bahodir Sobitning iqtidorli shoir ekanligidan dalolat beradi.

Senga kirgan dard nishi yuragimga sanchilsin,
Mendan ortiq, ayt, bolam, kimning joni achisin?!
Qancha azoblar bo‘lsa, menga ursin qamchisin,
Otang turib, ayt, nega sen ketasan, Humoyun?!

(Robiya Qamchibek qizi, “Boburshohning Humoyunga deganlari”)

Shoira Robiya Qamchibek qizi farzandi dardiga darmon izlab o‘zini to‘rt tomonga urayotgan, ko‘ziga toj-u taxti, saltanati ham ko‘rinmayotgan otaning iztiroblarini tasvirlar ekan, “*orqamda qol*”, “*joni achisin*”, “*menga ursin qamchisin*” kabi ifodalar otaning hissiyotlari, tug‘yon-u, iztiroblari naqadar kuchli ekanligidan darak beradi.

Shu o‘rinda shoiraning bu poetik talqinidagi “*pirpirab turgan jon*” zamiriga yashiringan tarixiy haqiqat haqida to‘xtalib o‘tishni joiz bildik. Ikki o‘t orasida yonayotgan Ota shunday deydi: “Yakshanba kuni muharram oyining o‘n oltisida isittim, titradim, navbatma-navbat bo‘ldi. Yigirma besh-yigirma olti kunga tortti. Doruyi kor ichtim. Oxir basit yarashti, uyqusizlig‘ va tashnalig‘din bisyor tashvish torttim”²⁵. Vatandan olisda, g‘urbat va tahlikada o‘tayotgan kunlarida tashvish izidan tashvish kelib, Humoyunning betoblanib qolganligi Bobur Mirzoga qattiq zarba bo‘ladi. “Pirpirab turgan” chiroqdek omonat jon uchun otani farzand dog‘i bilan sinash og‘ir ko‘rgulik edi va shu sabab “bu ne a‘mol” deb Ollohga zorlanadi. Tilimizdagi *qaddi dol bo‘lmoq* iborasi “G‘urbat qilgan edi-ku, yelkamni dol, Humoyun?!” misrasiga singdirib yuborilgani holda *qad* so‘zining *yelka* leksemasi

²⁴ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Тошкент: Қомуслар Бош таҳририяти, 1992. – Б.211.

²⁵ Бобур З.М. Бобурнома. – Тошкент: Юлдузча, 1990. – Б.304.

bilan almashtirilgani ibora mazmunini kuchaytirib, tasvirlanayotgan holat bilan Bobur Mirzoning umumiy ruhiyati qorishtirib ifodalanishi kechinmaning emotsionalligini yanada bo‘rttirishga xizmat qilgan. Robiya Qamchibek qizining bir she‘ri misolida badiiy-ijodiy tafakkuri, so‘z tanlash va qo‘llash mahoratini tahlil qilish asosida o‘zbek tilining rang-barang ifoda imkoniyatlari, so‘z va iboralarning o‘ziga xos ma’no qirralari kuzatildi.

Hurbuvi Odilova lirik qahramonlarining ichki ruhiy olami, xayolot dunyosini ochishga, o‘tmishdagi voqeliklar, jamiyatdagi hodisalar haqida xalq ijodiyotidan oziqlangan holda mushohada yuritishga intiladi. Uning olam va odamga, jamiyatga munosabati insoniy fazilatlari bilan uyg‘unlashib, lirik ijodida ham aks etadi.

Do‘st deb ishonganim ko‘zlarim o‘ydi,
O‘z do‘stini o‘tmas pichoqda so‘ydi,
Yaxshilikni bilmay yomonga yo‘ydi,
Nopok ishga qanday qadamlar qo‘ydi?
Do‘stim, xiyonating bag‘rim tig‘ladi.

“Ishonmagin do‘stingga, Somon tiqar po‘stingga” maqoli²⁶ni *Do‘st deb ishonganim ko‘zlarim o‘ydi* shaklida qo‘llagan shoira maqol va iborani bir o‘rinda uyg‘unlashtirib berish orqali ma‘noni kuchaytirishga, tasvirni yanada bo‘rttirishga erishgan. Mazkur maqolning izohi quyidagicha:

Nutqimizda *ko‘zini o‘ymoq* iborasi faol qo‘llansa-da, afsuski, o‘zbek tilining izohli va frazeologik lug‘atlarida uning tavsifi topilmadi. H.E.Yodgorov bu iborani disfemizm deb belgilaydi. Biz ham shu fikrni ma‘qullaymiz. “Disfema – denotatga subyektiv munosabatning manfiy tomonga ketishi bilan bog‘liq pragmatik hodisa. Bu, albatta, unga adabiy tilda o‘rin yo‘q deyishga asos bo‘la olmaydi. Disfemik ma‘noli birliklardan tinglovchida voqelik yoki shaxs haqida kuchaytirilgan salbiy taassurot qoldirish uchun foydalaniladi, biroq bu holat uni shu jihatdan o‘rganishga, tahlil va talqin etishga, qolaversa, tasnif etishga asos yo‘qligini, maqsad noma‘lum ekanligini, ehtiyoj sezilmasligini ko‘rsatmaydi. Muammo shundaki, haqiqatan ham, disfemizm mutlaq alohida birliklar tizimi emas, bunday birliklarning disfemik qiymati nutqiy, u evfemizm bilan bir sistemada, shu bilan birga, unga qarama-qarshi – zid vosita sifatida qaraladi²⁷. Mana shu fikrlarga tayangan holda disfemik iboralar ham mavjud, degan fikrni ilgari surish mumkin deb hisoblaymiz. Biz tahlilga tortayotgan ijodkorlarning asarlarida ham *ruhi chirqillamoq*, *ko‘zini o‘ymoq*, *yer bilan yakson bo‘lmoq* kabi iboralar qo‘llanganligi fikrimizni dalillaydi.

Binobarin, Qozog‘istonda yashab ijod qilayotgan o‘zbek ijodkorlari she‘riyatida ma‘naviy ildizlari bir bo‘lgan o‘zbek-qozoq milliy-madaniy kodlarining belgilarini ko‘rishimiz mumkin. Bu she‘rlarda rang-barang iboralar faol qo‘llangan bo‘lib, ruhiy holat, ichki kechinmalar, shaxslararo va ijtimoiy munosabatlarni ixcham va lo‘nda ifodalashda kuchli lingvopoetik vosita vazifasini o‘tagan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Qozog‘istondagi o‘zbek shoirlari asarlarida maqol, matal va turg‘un o‘xshatishlarning lingvopoetik**

²⁶ Ўзбек халқ мақоллари. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. – Б.124.

²⁷ Ёдгоров Х.Э. Дисфемик birliklarning поэтик имкониятлари // Гулистон давлат университети ахборотномаси. Гуманитар – ижтимоий фанлар серияси, 2023. – № 3. – Б.220-223.

imkoniyatlari” deb nomlangan. Bobning birinchi faslida “*Maqol, matal va turg’un o‘xshatishlarning she’riy nutqdagi poetik xoslanishi*” tadqiq qilingan.

Qozog‘istondagi o‘zbek shoirlarining ko‘zga ko‘ringan vakillaridan yana biri Abdirahim Pratovdir. Olima Sh.Burkitboyeva shoir haqida shunday yozadi: “Abdirahim Pratov she’rlarining mavzu doirasi nihoyatda keng. El mustaqilligini mustahkamlashni xalq tinchligining garovi deb bilgan shoir yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga adabiyotning zimmasida ulkan mas’uliyat borligini chuqur his qiladi. Vatan istiqbolini, yurt tarixini, milliy qadriyatlarni, ota makonni, tarixiy go‘shalarni mehr bilan tasvirlaydi”²⁸. Quyidagi otashin satrlar olimaning fikrini tasdiqlaydi:

Yuzida tabassum, aslida pinhon,
Nechun inson payin qirqadi inson?
Hasad degan narsa bo‘lmaskanda gar,
Olam aylanardi jannatga, inon.

(A.Pratov, “Yuzida tabassum...”)

Shoir “*Sirti yaltiroqning ichi – qaltiroq*” maqolini o‘zgartirib, Yuzida tabassum, aslida pinhon shaklida qo‘llaydi. Bizningcha, shoir maqolning butunlay boshqa, yangi qirrasini kashf qilgan, ya’ni she’rda tashqi ko‘rinishini yaltiratib, aslida qo‘lidan hech narsa kelmaydigan dangasalar emas, balki yuzi kulib, o‘zi shirin gapirib, ichida suhbatdoshining xato qilishini kutib, zimdan unga qanday zarba berishni o‘ylaydigan, kimningdir oyog‘idan chalishga tayyor turadigan ikkiyuzlama kimsalar qalamga olingan.

